agentics.

id.agentics.uz

Agentics ID hisob va Telegram bot qo'llanmasi

Bitta hisob — HRM, Wash va WMS uchun. Kirish, parolni tiklash, kod bilan kirish va rahbar uchun «Kirish hisoblari» sahifasi.

---

v1.0 · 2026-09
Qo'llanma versiyasi

@AgenticsIdBot
Ulash, parol tiklash, kod bilan kirish

id.agentics.uz
Yagona kirish sahifasi

Mundarija

01 Agentics ID nima
Bitta hisob, ko'p tizim; tashkilot va rollar; kirish sahifasi

02 Birinchi kirish
Vaqtinchalik parol, majburiy almashtirish, parol qoidalari, sessiya va chiqish

03 Telegram botni ulash
@AgenticsIdBot, «Telefonni ulashish», buyruqlar, til

04 Parolni tiklash
6 xonali kod, muddat va chegaralar, sessiyalar nima uchun yopiladi

05 Parolsiz kirish (kod bilan)
Telefon → kod → tizim; parol kerak emas

06 Rahbar uchun: Kirish hisoblari
Xodim qo'shish, taklif havolasi, so'rovlar, rol, parol tiklash

07 Xavfsizlik tavsiyalari
Qisqa va amaliy qoidalar

08 Ko'p so'raladigan savollar
Nosozlik belgilari, sabablari va yechimlari

01 · AGENTICS ID NIMA

Bitta hisob — barcha Agentics tizimlari

Agentics ID — Agentics mahsulotlari oilasining umumiy kirish eshigi. Siz bir marta hisob olasiz, HRM, Wash yoki WMS esa sizni shu hisob bo'yicha taniydi.

Uchta tushuncha

Hisob
`telefon raqami`
Odam. Yagona kaliti — telefon raqami (E.164, masalan +998901234567). Email ixtiyoriy.

Tashkilot
`tenant`
Mijoz kompaniya. Har tashkilotning ma'lumoti alohida devor ichida: bir tashkilot ikkinchisini ko'rmaydi.

Rol
`tashkilot × mahsulot`
Bir odam WMS'da administrator, HRM'da oddiy xodim bo'lishi mumkin. Rol har mahsulot uchun alohida beriladi.

- **Login va parol bitta.** Parolni bir joyda almashtirasiz — HRM, Wash va WMS'da birdek almashadi.
- **Ma'lumot aralashmaydi.** Kirganda faqat o'sha mahsulot va o'sha tashkilotdagi huquqlaringiz ishlaydi.
- **Rolni tashkilot rahbari beradi.** Rahbar sizni mahsulotga qo'shib rol tanlamaguncha «Sizga bu tizim biriktirilmagan» sahifasini ko'rasiz.
- **Bir nechta tashkilot — bitta hisob.** Ikki kompaniyada ishlasangiz, kirishda Tashkilotni tanlang sahifasi chiqadi; tanlov eslab qolinadi.

Kirish sahifasida nimalar bor

Sahifa `id.agentics.uz` manzilida. Mahsulotga kirmoqchi bo'lganingizda ilova sizni o'zi shu sahifaga yuboradi, kirgach qaytaradi. `id.agentics.uz/apps` — «Mening ilovalarim»: sizga ochiq tizimlar ro'yxati.

Telefon yoki email	Login maydoni. Telefonni `+998` siz kiritsangiz ham bo'ladi — u avtomatik qo'shiladi. Namuna: `+998 90 014 31 36`.
Parol	Parol maydoni. Parol faqat shu sahifada kiritiladi — mahsulot ilovalari uni hech qachon so'ramaydi.
Kirish	Asosiy tugma.
Kod bilan kirish	Parolsiz kirish — kod Telegram botga keladi (05-bob).
Parolni unutdim	Parolni tiklash — kod Telegram botga keladi (04-bob).
Til	O'zbek lotin, o'zbek kirill, rus. Tanlangan til botdan keladigan kod xabariga ham ta'sir qiladi.

Nega sahifada mahsulot nomi yo'q
Kirish sahifasi ataylab neytral: bir sahifada HRM, Wash va WMS foydalanuvchilari parol kiritadi. Sahifada faqat «Agentics ID» yozuvi bo'lsa — bu soxta sahifa emas, shunday bo'lishi kerak. Tashkilotlar va obunalarni platforma darajasida Agentics xodimlari o'z boshqaruv paneli orqali yuritadi; kundalik ishda u sizga kerak emas.

02 · BIRINCHI KIRISH

Vaqtinchalik paroldan o'z parolingizgacha

Rahbaringiz sizni qo'lda qo'shgan bo'lsa, sizga bir martalik vaqtinchalik parol beradi. Birinchi kirishda tizim uni almashtirishni talab qiladi.

1. **Ilovani oching.**
   HRM, Wash yoki WMS manzilini oching — ilova sizni `id.agentics.uz` ga yuboradi.
2. **Telefon va vaqtinchalik parolni kiriting.**
   Telefon yoki email maydoniga rahbar ro'yxatga olgan raqamni, Parol maydoniga vaqtinchalik parolni yozing, Kirish ni bosing.
3. **Yangi parol o'ylab toping.**
   «Davom etish uchun parolni almashtirish SHART» sahifasi ochiladi. Joriy parol (vaqtinchalik), Yangi parol va Yangi parolni takrorlang maydonlarini to'ldirib Parolni almashtirish ni bosing.
4. **Davom eting.**
   «Parol almashtirildi» xabaridan keyin Davom etish — siz mahsulot ichidasiz.

Parol qoidalari

Kamida **10 belgi** (ko'pi bilan 128); ichida kamida bitta **katta harf**, bitta **kichik harf**, bitta **raqam** va bitta **maxsus belgi** (`! ? _ - # @` kabi) bo'lishi shart; yangi parol joriysidan farq qilishi kerak. Uzun ibora osonroq esda qoladi va kuchliroq — masalan `Bahor-2026-keldi!` ko'rinishida (o'zingiznikini o'ylab toping). Bir xil parolni boshqa saytlarda ishlatmang.

Noto'g'ri parol va vaqtinchalik blok

5 marta ketma-ket xato parol kiritilsa hisob vaqtincha bloklanadi: dastlab 1 daqiqaga, har keyingi xatoda muddat ikki baravar uzayadi (ko'pi bilan 1 soat); 15 daqiqa tinch o'tsa hisoblagich nolga tushadi. Parolni eslay olmasangiz — kutmang, Parolni unutdim ni bosing (04-bob).

Sessiya va chiqish

- Kirish sahifasi sessiyasi 8 soat, ishlab turganingizda uzayadi; mahsulot ilovasi sizni 14 kungacha parol so'ramasdan eslab qoladi.
- Ilovadagi Chiqish tugmasi ham ilova, ham Agentics ID sessiyasini yopadi.
- Parol almashtirilsa yoki tiklansa, boshqa barcha qurilmalardagi sessiyalar avtomatik yopiladi. Rahbar rolingizni o'zgartirsa, yangi rol ko'pi bilan 15 daqiqada kuchga kiradi; hisob bloklansa — darhol.


> **Umumiy kompyuter**
> Boshqalar ham ishlatadigan kompyuterda ish tugagach albatta Chiqish ni bosing. Brauzerni yopish sessiyani yopmaydi.

03 · TELEGRAM BOTNI ULASH


@AgenticsIdBot — parolsiz yashash uchun bir marta ulanadi

Bot faqat uch ish qiladi: hisobni ulaydi, parol tiklash kodini yuboradi, kirish kodini yuboradi. Ombor, buyurtma yoki smena xabarlari bu botda bo'lmaydi — ular mahsulotning o'z botida qoladi.

1. **Botni oching.**
   Telegram'da `@AgenticsIdBot` ni toping (yoki `t.me/AgenticsIdBot`) va Start bosing.
2. **Tugmani bosing.**
   Bot pastda Telefonni ulashish tugmasini ko'rsatadi. Telegram raqamingizni yuborishga ruxsat so'raydi — tasdiqlang.
3. **Tamom.**
   Bot «Ulandi» deb javob beradi. Endi parol tiklash va kirish kodlari shu chatga keladi.



Raqamni qo'lda yozib bo'lmaydi
Bot faqat Telefonni ulashish tugmasi orqali kelgan kontaktni qabul qiladi, chunki bu raqamni Telegram'ning o'zi tasdiqlaydi. Raqamni matn qilib yozsangiz yoki boshqa odamning kontaktini yuborsangiz, bot rad etadi:



Raqam tizimda bo'lmasa bot «Bu raqam Agentics ID'da yo'q. Ish beruvchingizdan hisob so'rang» deydi. Demak rahbaringiz sizni hali qo'shmagan yoki boshqa raqam bilan qo'shgan; bloklangan hisob ham shu javobni oladi. Rahbar «Kirish hisoblari» da raqamingizni tekshirsin (06-bob).

Buyruqlar

Buyruq	Nima qiladi
`/start`	Hisobni ulash; ulangan bo'lsa holatni ko'rsatadi («Bu chat Agentics ID hisobingizga ulangan…»)
`/unlink`	Bog'lanishni uzish — kodlar endi kelmaydi. Qayta ulash: `/start`
`/help`	Qisqa yordam. Boshqa har qanday matnga bot `/start` javobini qaytaradi

Bir Telegram — bir hisob

Shu Telegram akkauntidan yangi raqam ulasangiz, eski bog'lanish avtomatik uziladi. Telefon raqamingiz o'zgarsa, avval rahbar hisobdagi raqamni yangilaydi, keyin siz qayta ulaysiz.

Til

Bot tilni Telegram sozlamangizdan oladi: ruscha bo'lsa — rus, o'zbek kirill bo'lsa — kirill, qolgan hamma holatda — o'zbek lotin. Kod xabari esa siz kirish sahifasida tanlagan tilda keladi.

04 · PAROLNI TIKLASH

Parolni unutdingizmi? Kod Telegram'ga keladi

Rahbarga murojaat qilish shart emas: raqamingiz botga ulangan bo'lsa (03-bob), parolni o'zingiz uch daqiqada tiklaysiz.

1. **«Parolni unutdim» ni bosing.**
   Kirish sahifasida (`id.agentics.uz`) shu havolani bosing.

2. **Telefon raqamini kiriting.**
   `Telefon raqami` maydoniga hisobingiz raqamini yozib `Kod olish` ni bosing. Sahifa: «Agar raqam Telegram'ga ulangan bo'lsa, kod yuborildi. Kod 5 daqiqa amal qiladi».

3. **Kodni kiriting.**
   Botga 6 xonali kod keladi. Uni `Kod` maydoniga yozib `Tasdiqlash` ni bosing. Kod kelmasa — `Yangi kod so'rash`.

4. **Yangi parol o'rnating.**
   Parol qoidalari 02-bobdagi bilan bir xil. `Parolni saqlash` — tamom. Kirish sahifasi «Parol yangilandi» deb qaytadi; yangi parol bilan kiring.

`AgenticsIdBot`

Agentics ID: parolni tiklash kodi — **482 913**
Kod 5 daqiqa amal qiladi. Uni hech kimga aytmang. Kodni siz so'ramagan bo'lsangiz, bu xabarni e'tiborsiz qoldiring.

Chegaralar

Qoida	Qiymat
Kod	6 raqam, 5 daqiqa amal qiladi («Kod yo'q yoki muddati o'tgan» — yangi kod so'rang)
Noto'g'ri urinish	3 marta, keyin kod bekor bo'ladi («Kod uch marta noto'g'ri kiritildi va bekor qilindi»)
Qayta so'rash	Bir raqamga 15 daqiqada 5 martagacha; yangi kod so'ralsa eskisi bekor bo'ladi
Yangi parol kiritish	Kod tasdiqlangandan keyin 10 daqiqa ichida («Sahifa eskirdi» — qaytadan boshlang)

Nega sahifa har doim bir xil javob beradi
Raqam ulangan bo'lsa ham, bo'lmasa ham sahifa «Agar raqam ulangan bo'lsa, kod yuborildi» deydi — aks holda begona odam raqamlarni birma-bir kiritib, kimning hisobi borligini bilib olardi. Kod kelmasa, sabab ikkita: raqamingiz botga ulanmagan (03-bob) yoki boshqa raqam kiritgansiz.

Parol tiklangach barcha sessiyalar yopiladi
Bu ataylab: parolni unutish sababi ba'zan o'g'irlangan sessiya bo'ladi. Botga siz so'ramagan kod kelsa — kimdir raqamingizni kiritgan: kodni hech kimga aytmang, takrorlansa rahbaringizga ayting.

05 · PAROLSIZ KIRISH (KOD BILAN)

Parolni umuman ishlatmasdan kirish

Raqamingiz botga ulangan bo'lsa, parol o'rniga Telegram'ga kelgan kod bilan kirasiz. Taklif havolasi orqali qo'shilgan xodimlar uchun bu asosiy yo'l — ularda parol umuman yo'q.

1. **«Kod bilan kirish» ni bosing.**
   Kirish sahifasida shu havola bor.
2. **Telefon raqamini kiriting.**
   Telefon raqami → Kod olish.
3. **Kodni kiriting.**
   Botga «kirish kodi» keladi. Uni yozib Kirish ni bosing — siz tizimdasiz.

AgenticsIdBot

Agentics ID: kirish kodi — **730 256**
Kod 5 daqiqa amal qiladi. Uni hech kimga aytmang. Kodni siz so'ramagan bo'lsangiz, bu xabarni e'tiborsiz qoldiring.

Chegaralar 04-bobdagi bilan bir xil: 6 raqam, 5 daqiqa, 3 urinish, 15 daqiqada 5 so'rov.

Ikki xil kod — ikki xil maqsad
Bot xabarida kodning maqsadi yozilgan: «parolni tiklash kodi» yoki «kirish kodi». Parol tiklash kodi bilan kirib bo'lmaydi va aksincha — almashtirilsa tizim rad etadi. Sahifada qaysi amalni boshlagan bo'lsangiz, o'sha kodni kuting.

Vaqtinchalik parol bo'lsa
Rahbar sizni vaqtinchalik parol bilan qo'shgan bo'lsa, kod bilan kirgandan keyin ham tizim parolni almashtirish sahifasiga yuboradi. Bu normal: bir marta o'z parolingizni o'rnating, keyin istagan yo'l bilan kiring.

Qaysi yo'l qulay
Ish kompyuterida parol tezroq. Notanish qurilmada yoki parolni eslashga ishonchingiz komil bo'lmaganda «Kod bilan kirish» xavfsizroq: parol hech qayerga terilmaydi.

Telegram'ni himoyalang
Kirish kodi Telegram'ga keladi, demak Telegram'ingizga kirgan odam hisobingizga ham kira oladi. Telegram'da ikki bosqichli tasdiqlashni yoqing va begona qurilmalardagi sessiyalarni tekshirib turing.

06 · RAHBAR UCHUN: KIRISH HISOBLARI

Xodimlaringizni o'zingiz qo'shasiz, rolini o'zingiz berasiz

Tashkilotda mahsulotning **administrator** roli bor odam «Kirish hisoblari» sahifasini ko'radi. Sahifa uchala mahsulotda bir xil, faqat menyudagi joyi farq qiladi.

Mahsulot	Menyu	Manzil
Agentics WMS	Sozlamalar → Kirish hisoblari	`/settings/access`
Agentics Wash	Xodimlar → Kirish hisoblari	`/staff/access`
Agentics HRM	Ruxsatlar → Kirish hisoblari	`/access/accounts`

Sahifa sarlavhasi ostida tashkilot va mahsulot nomi turadi — siz aynan shu juftlik uchun hisoblarni boshqarasiz. Boshqa mahsulotdagi rollar bu yerda ko'rinmaydi va o'zgarmaydi. Ikki tab bor: Hisoblar va So'rovlar.

Yo'l 1 — xodimni qo'lda qo'shish (vaqtinchalik parol)

1. **Formani oching.**
   Hisoblar tabida Qo'shish ni bosing.
2. **Ma'lumotni kiriting.**
   Telefon (majburiy), To'liq ism (yangi odam uchun kerak), Rol ro'yxatidan rolni tanlang. Saqlash.
3. **Vaqtinchalik parolni nusxalang.**
   Yangi odam uchun «Vaqtinchalik parol» oynasi ochiladi. Nusxalash ni bosing, parolni xodimga xavfsiz yo'l bilan yetkazing, so'ng Yopdim, nusxa oldim.
4. **Xodimga ayting.**
   Birinchi kirishda tizim undan parolni almashtirishni so'raydi (02-bob). Kod bilan kirishni xohlasa — avval botga ulanadi (03-bob).

> **Parol faqat HOZIR ko'rinadi**
> Oyna yopilgach vaqtinchalik parolni qaytarib bo'lmaydi — tizim uni saqlamaydi. Unutib qo'ysangiz, xodim qatorida Parolni tiklash orqali yangisini yasaysiz.

> **Telefon allaqachon tizimda bo'lsa**
> Bu odam boshqa tashkilotda yoki boshqa mahsulotda ishlayotgan bo'lishi mumkin. U yangi hisob olmaydi — mavjud hisobi shu mahsulotga tanlangan rol bilan qo'shiladi, paroli o'zgarmaydi. Sahifa «Mavjud hisob qo'shildi — uning paroli o'zgarmadi» deydi. Xodim o'z odatdagi paroli yoki kod bilan kiradi.


Yo'l 2 — taklif havolasi (xodim o'zi keladi)

1. **Havolani oling.**
   So'rovlar tabida Taklif havolasi ni bosing. Havola `t.me/AgenticsIdBot?start=…` ko'rinishida chiqadi, yonida Nusxalash va «Amal qiladi» sanasi.
2. **Xodimga yuboring.**
   Telegram, SMS — istalgan yo'l. Bitta havolani bir nechta xodimga yuborsangiz ham bo'ladi.

3 **Xodim botda raqamini tasdiqlaydi.**
Havola botni ochadi, bot «"Tashkilot" sizni Agentics WMS tizimiga taklif qilmoqda» deb `Telefonni ulashish` tugmasini ko'rsatadi. Xodim bosadi — so'rov yaratiladi.

4 **Sizga xabar keladi.**
Sizning Telegram'ingiz botga ulangan bo'lsa, bot «Yangi qo'shilish so'rovi: Ism (telefon)» deb yozadi.

5 **Tasdiqlang yoki rad eting.**
`So'rovlar` tabida qatordagi `Rol` ni tanlab `Tasdiqlash` ni bosing; kerak bo'lmasa — `Rad etish`. Tasdiqlangan xodim tizimga parolsiz, kod bilan kiradi (05-bob).



Rahbarga keladigan xabar: «Yangi qo'shilish so'rovi: Dilnoza Karimova (+998 93 …) — "Nurafshon Savdo", WMS. Kabinetda: Kirish hisoblari → So'rovlar».

Qoida	Qiymat
Havola amal qilish muddati	7 kun. Bir kundan kam qolgan bo'lsa tugma bosilganda yangi havola beriladi; eskirgan havolaga bot «Rahbaringizdan yangi havola so'rang» deydi
Havolani ochgandan keyin kontakt kutilishi	15 daqiqa — o'tib ketsa xodim havolani qayta ochadi
Bir odam — bir ochiq so'rov	Havolani ikki marta bossa dublikat yaratilmaydi; allaqachon a'zo bo'lsa so'rov ham yaratilmaydi

> **Havolaning o'zi hech qanday huquq bermaydi**
> Havola orqali kelgan odam faqat so'rov yuboradi; siz tasdiqlab rol bermaguningizcha tashkilotga kira olmaydi. Havola begona qo'lga tushsa ham xavf yo'q — so'rovni rad etasiz.

Hisoblar ro'yxatida nimalar bor

Qidiruv — «Ism yoki telefon bo'yicha qidirish» maydoni.

Ustunlar — `Ism`, `Telefon`, `Rol`, `Holat`, `Belgilar`, amallar.

Rol	Qatordagi ro'yxatdan boshqa rolni tanlasangiz darhol saqlanadi («Rol o'zgartirildi»). Rollar ro'yxatini mahsulot o'zi e'lon qiladi (masalan Administrator, Menejer, Xodim, Kassir, Omborchi).
Holat	Faol · Bloklangan · To'xtatilgan · O'chirilgan · Kutilmoqda · Taklif qilingan.
Belgilar	`Telegram` — bot ulangan; `Parolni almashtirishi kerak` — vaqtinchalik parol hali almashtirilmagan.
`Parolni tiklash`	Yangi vaqtinchalik parol yasaladi, eskisi ishlamay qoladi, xodimning barcha sessiyalari uziladi. Tasdiq so'raladi; natija — o'sha bir martalik oyna.
`Olib tashlash`	Odam shu mahsulotdan olib tashlanadi. Hisobi o'chmaydi — boshqa mahsulot yoki tashkilotda ishlashda davom etadi.

O'zingizga tegolmaysiz

O'z rolingizni o'zgartira yoki o'zingizni olib tashlay olmaysiz («Siz» belgisi bor qator). Oxirgi administratorni olib tashlab yoki rolini pasaytirib bo'lmaydi — tashkilot rahbarsiz qolmasin.

Boshqa tashkilotda ham ishlaydigan odam

Uning parolini siz tiklay olmaysiz: «Bu odam boshqa tashkilotda ham ishlaydi — parolni o'zi "Parolni unutdim" orqali tiklaydi». Bitta parol ikki tashkilotga tegishli, shuning uchun uni faqat egasi almashtiradi.

Bloklash haqida

Hisobni butunlay bloklash yoki blokdan chiqarish — platforma darajasidagi amal, uni Agentics xodimlari bajaradi; sahifada siz faqat «Bloklangan» holatini ko'rasiz. Xodim ishdan ketganda sizga `Olib tashlash` yetarli: u sizning tashkilotingizga kira olmaydi. Hisobni bloklash zarur deb hisoblasangiz, Agentics'ga murojaat qiling.

07 · XAVFSIZLIK TAVSIYALARI

Sakkiz oddiy qoida

Agentics ID sizga bir odam — bir hisob tartibini beradi. Bu tartib ishlashi uchun har kimdan ozgina intizom talab qilinadi.

1. Parol — faqat sizniki

Parolni hamkasbga bermang, chatga yozmang, qog'ozga yopishtirmang. Ishni boshqa odam bajarishi kerak bo'lsa, rahbar unga o'z hisobini ochadi — bu bir daqiqalik ish (06-bob).

2. Bitta hisob — bitta odam

«Umumiy» hisob (masalan, «kassa1») kim nima qilganini ko'rsatmaydi. Har xodimga o'z raqami bilan hisob oching; ketganda olib tashlang.

3. Parolni faqat id.agentics.uz da kiriting

Mahsulot ilovalari parol so'ramaydi. Boshqa manzildagi «Agentics» kirish sahifasi — soxta. Brauzer manzilini tekshiring.

4. Kodni hech kimga aytmang

Agentics xodimi ham, rahbar ham, «texnik yordam» ham botga kelgan kodni so'ramaydi. Kod so'ragan har kim — firibgar.

5. Telegram'ni himoyalang

Bot kirish kodini Telegram'ga yuboradi. Telegram'da ikki bosqichli tasdiqlashni yoqing, «Qurilmalar» bo'limida notanish sessiyalarni yopib turing.

6. Ketayotganda «Chiqish»

Umumiy kompyuterda, mijoz zalidagi planshetda, kassa terminalida ish tugagach chiqib keting. Sessiya 8 soatgacha ochiq turishi mumkin.

7. Shubha bo'lsa — parolni almashtiring

Kutilmagan kod keldi, kimdir hisobingizga kirgandek tuyuldi — `Parolni unutdim` orqali yangi parol qo'ying: boshqa hamma sessiyalar avtomatik yopiladi.

8. Rahbar uchun: rolni tejab bering

Administrator rolini faqat hisoblarni boshqarishi kerak bo'lganlarga bering. Vaqtinchalik parolni oynadan nusxalab xavfsiz yo'l bilan yetkazing; ochiq guruh chatiga yozmang.

Nima nazoratda

Har kirish, xato urinish, blok, kod yuborilishi, parol almashishi, Telegram ulanishi va uzilishi — barchasi audit jurnalida qayd etiladi. Nizoli holatda «kim, qachon» savoliga javob bor.

08 · KO'P SO'RALADIGAN SAVOLLAR

Nosozlik belgisi → sabab → yechim

Avval shu jadvalni ko'ring; ko'p holat bir daqiqada hal bo'ladi.

Belgi	Sabab	Yechim
Bot «Bu raqam Agentics ID'da yo'q» deydi	Raqam tizimda yo'q, boshqa raqam bilan qo'shilgan yoki hisob bloklangan	Rahbar «Kirish hisoblari» da raqamni tekshirsin; kerak bo'lsa xodimni qo'shsin
Kod kelmayapti	Raqam botga ulanmagan; botni bloklab qo'ygansiz; boshqa raqam kiritilgan	Botni oching, `/start`, Telefonni ulashish; keyin kodni qayta so'rang
«Kod noto'g'ri» uch marta	Kod bekor qilindi	Qaytadan Parolni unutdim yoki Kod bilan kirish ni bosing — yangi kod keladi
Yangi kod yuborilmayapti	15 daqiqada 5 tadan ko'p so'rov	15 daqiqa kuting
«Kod yo'q yoki muddati o'tgan»	5 daqiqa o'tgan yoki yangi kod so'ralgan	Eng oxirgi kelgan kodni kiriting; bo'lmasa yangi kod so'rang
Kod keldi, lekin «Kod noto'g'ri»	Parol tiklash kodi bilan kirmoqchisiz (yoki aksincha)	Bot xabaridagi maqsadga qarang: «kirish kodi» — faqat kirish, «parolni tiklash kodi» — faqat tiklash uchun
«Hisob vaqtincha bloklandi. N daqiqadan keyin…»	5 marta xato parol	Kuting yoki Parolni unutdim orqali yangi parol qo'ying
«Sizga bu tizim biriktirilmagan»	Hisob bor, lekin shu mahsulotda rol yo'q	Rahbar «Kirish hisoblari» da sizni qo'shsin yoki so'rovingizni tasdiqlasin
«Parolni unutdim» va «Kod bilan kirish» ko'rinmaydi	Bot vaqtincha o'chirilgan	Parol bilan kiring yoki rahbar vaqtinchalik parol bersin; Agentics'ga xabar bering
Telefon raqamim o'zgardi	Hisob eski raqamga bog'langan	Rahbaringizga ayting; raqam yangilangach botga qayta ulanasiz (`/start`)
Rahbar: «Bu odam boshqa tashkilotda ham ishlaydi…»	Bir hisob ikki tashkilotga tegishli	Xodim parolni o'zi Parolni unutdim orqali tiklaydi
Rahbar: vaqtinchalik parol oynasini yopib qo'ydim	Parol qayta ko'rsatilmaydi	Xodim qatorida Parolni tiklash — yangi vaqtinchalik parol